



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING O'QISH SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA SAVOL BERISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI

Otaboyeva Yulduz

Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumani 16-maktab psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini rivojlantirishda savol berish ko'nikmalarini rivojlantirishning mazmuni, shakl, metod, va vositalari bayon qilingan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, savol berish, natija, samaradorlik, savol darajalari, kommunikativ yondashuv.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi 5712-son Farmonida 2030-yilga kelib, ta'limi taraqqiy etgan mamalakatlar doirasida reyting bo'yicha jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish hamda xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy fanlar yo'nalishidagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo'naltirilgan ta'lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan. Vazirlar Mahkamasining "Umumiy o'rta ta'lim va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori bilan tasdiqlangan umumiy o'rta ta'limining davlat ta'lim standartida belgilab berilgan "Umumiy ta'limning poydevori bo'lgan boshlang'ich ta'lim o'quvchilarini ongli, to'g'ri va ifodali o'qishga o'rgatish bilan birga keng dunyoqarash, aqliy kamolotga erishish va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish, o'quvchilarni har



tomonlama rivojlantirishga xizmat qilmog'i lozim"²⁵ ekanligi belgilab berilgan. Boshlang'ich sinflarda ona tili va o'qish savodxonligi darslarini samarali tashkil etish orqali o'quvchilarda tilga oid amaliy ko'nikmalarni shakllantirish bilan birga o'quvchilar egallagan ko'nikmalarini kundalik turmushda, hayotiy vaziyatlarda qo'llashlari bilan bog'liq fundamental bilimlar, tanqidiy fikrlash, kreativlik, muloqotchanlik, hamkorlikda ishlay olish bilan bog'liq murakkab masalalarni hal qila olish ko'nikmalari, qiziquvchanlik, tashabbuskorlik, maqsad sari intilish, moslashuvchanlik, liderlik, ilmiy xabardorlik bilan bog'liq shaxsiy fazilatlarni shakllantirishga olib keladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ona tili va o'qish savodxonligi darslarida qanday qilib yuqorida ta'kidlangan vazifalarning samarali yechimiga erishish mumkin? Albatta bu masalada o'quvchida mustaqil, to'g'ri savol berish ko'nikmasini rivojlantirish hal qiluvchi omil hisoblanadi. Ta'lim jarayonida eng ko'p vaqt oladigan va eng ko'p bilim beradigan vosita bu savollar hisoblanadi. Sal mubolag'a bilan aytganda, savollarning qanday bo'lishi o'quvchi tafakkurining qay darajagacha rivojlanishini belgilab beradi. AQSHda o'qituvchilarning savol berishiga oid ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. 1980-yilda pedagog olimlar Leven va Long 1912-yilda AQSH o'qituvchilari maktab kunining 80% izini savollar berish va ularga javob kutishga sarflashganini aniqlashgan. Vilenning 1991-yilda e'lon qilgan tadqiqoti esa o'quvchilarga beriladigan savollarning aksariyati quyi kognitiv darajadagi (o'quvchidan quyi tafakkur darajasini talab qiladigan) savollardan iborat bo'lib, ular, asosan, ma'lumotni eslab qolganlik darajasini tekshirishga qaratilgan hamda yuqori kognitiv darajani qamrab olmaganligini ko'rsatadi. O'qituvchining savol berishi va savollarni tanlashi darsning samarasini ham belgilab beradi. Savollarning samarali bo'lishi o'quvchi tomonidan ma'lumotning samarali o'zlashtirilishini ham ta'minlaydi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida amaliy ko'nikmalarni, hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishga ko'ra savollarni quyidagi turlarga ajratib tasniflash mumkin:

- quyida darajadagi;



- yuqori darajadagi;
- konvergent;
- divergent..

Quyi darajadagi savollar o'quvchidan bitta fakt yoki ma'lumotni eslab qolishni talab etadi. Yuqori darajadagi savollar esa eslab qolishdan tashqari vaziyatni, mavzuni, qo'yilgan muammoning yechimini tushunganligini ham ko'rsatib berishni so'raydi. Bundan tashqari, yuqori darajadagi savollar o'quvchidan faktlar va ma'lumotlar o'rtasidagi aloqani hamda ana shu fakt va ma'lumotlarning vaziyatga aloqadorligini anglashni talab etadi. Quyi va yuqori darajadagi savollarning qiyosi: Quyi darajadagi savol. Ushbu tasvirdagi ayiqning rangi qanday? Bu savol o'quvchining rangni tanish va uning nomini bilishini aniqlashga qaratilgan. Javoblarning diapazoni juda ham tor (oq, qo'ng'ir, qora, jigarrang). Yuqori darajadagi savol. Nima uchun ayiqni bunday rangda deb o'ylaysiz? Bu savol o'quvchidan rangni tanish va nomini bilishini talab qiladi, lekin bunda o'quvchi ayiqning rangini boshqa narsalar bilan (yashaydigan muhit, boshqa ayiqlar, hayvonlarning boshqa turlari, oziq-ovqati) munosabatini (aloqasini) ham ko'rib chiqishi ham kerak bo'ladi. Konvergent savol bu o'quvchini muammoning yagona va aniq javobini topishga qaratilgan fikrlashni shakllantirishga olib keladi. Konvergent fikrlash muhim ijodkorlikni talab qilmaydigan standart savollarga "to'g'ri" javob berish qobiliyatini anglatadi, masalan, maktabdagi ko'pgina vazifalarda va standartlashtirilgan ko'p tanlovli testlardan aniq javobni topishga yo'naltirilgan savollar. Boshlang'ich sinf o'quvchilari savollar yordamida mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda darslarni tashkil etishda, to'g'ri savol berish ko'nikmalarini rivojlantirishda kommunikativ yondashuv ham alohida ahamiyatga ega. Mazkur yondashuvning mohiyati real vaziyatda nutqni tushunish, o'z fikrini to'g'ri ifodalashga o'rgatishdir. Shuning uchun har bir mavzu uchun alohida vaziyat beriladi va shu vaziyatda nutq vositasida masalani hal qilish talab qilinadi. Hayotiy ko'nikmalar ma'lum bir nutqiy mazvular doirasida amaliy yo'naltirilgan holda shakllantiriladi. Kommunikativ



yondashuvga asoslangan darslarda faqat yozma matn bilan cheklanib qolinmaydi. Tilning ogʻzaki va yozma shaklidan darslar davomida baravar foydalaniladi. Mavjud anʼanaga koʻra ona tili oʻqitishda yozma matn asosiy oʻrinda turadi, ogʻzaki nutqqa alohida eʼtibor qaratilmaydi. Vaholanki, insonning birlamchi til koʻnikmasi ogʻzaki nutqdir. Ogʻzaki nutqni rivojlantirish tilning qolgan shakllarini rivojlantirish uchun asos boʻlib xizmat qiladi. Yozma nutq bilan koʻp ishlash ogʻzaki nutqni oʻz-oʻzidan rivojlanib qolishiga olib kelmaydi, chunki yozma nutq va ogʻzaki nutq mazmun jihatidan bir nuqtaga birlashsa-da, ularning amalga oshish jarayoni inson ongida boshqa-boshqa mexanizmning ishlashi orqali taʼminlanadi. Shuning uchun ularning har biriga alohida eʼtibor berish zarur. Ogʻzaki nutqni turli koʻrinishlarda – monolog, dialog, suhbat, bahs-munozara shakllarida toʻgʻri tushunish koʻnikmasiga eʼtibor qaratiladi. Ogʻzaki nutqni tushunishda ogʻzaki nutqning turli koʻrinishlarini hisobga olish insonning tushunish qobiliyatini charxlaydi: oʻquvchi nutqning turli qirralariga eʼtibor qilinishni oʻrganadi. Tilga oid qoidalar zaruriy holatlarda izohlab oʻtiladi va amalda qoʻllanishi birinchi oʻrinda boʻlgani uchun qoidani oʻzlashtirish samaraliroq boʻladi. Boshlangʻich sinf oʻquvchilarida oʻqish samaradorligini rivojlantirishda, ularda mantiqiy tafakkurning shakllantirishda, mustaqil fikrlash koʻnikmalarini takomillashtirishda, oʻquv materiallarini samarali oʻzlashtirishda toʻgʻri savol berishga oʻrgatish orqali kafolatli natijaga erish mumkin.

Adabiyotlar roʻyxati:

1. Ona tili. Umumiy oʻrta taʼlimning milliy oʻquv dasturi. T.: 2020. 170 b.
2. Baholash nazariyasi asoslari. [Matn]/ Komil Jalilov.- T.: Akademnashr, 2020.- 256 b.
3. Ona tili va oʻqish savodxonligi. 1-qism [Matn]: darslik 2-sinf uchun / K. Mavlonova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika taʼlim markazi, 2021. – 120 b.